

INGLIZ TILINI ONLAYN O`RGANISHGA

yordam beradigan

4 ta sinalgan usul





1. Aniq rejalar tuzing va kichik qadamlar bilan boshlang

Ko'pchilik ingliz tilini o'rganishni katta qadam sifatida ko'radi va bu ularda vaqt yetmasligiga olib keladi. Lekin aslida til o'rganishni kichik qismlarga bo'lib o'rganish juda samarali.

Bir kunlik vaqtning kichik qismlarini ajratib, o'rganish jarayonini davom ettirishga osonlik bilan erishishingiz mumkin.

Masalan, har kuni ertalab 10 daqiqa grammatika, tushlikdan keyin 15 daqiqa yangi so'zlarni yodlash, kechqurun esa qisqa maqola yoki dialog o'qish orqali bosqichma-bosqich tilni o'zlashtirasiz.

Bu yondashuv nafaqat o'rganishni qiziqarli qiladi, balki diqqatni chalg'itmasdan har kuni muntazam o'rganishga imkon beradi. Eng muhimi, bu jarayonda miya charchamaydi va tilni o'rganish osonroq bo'ladi.

Haftalik jadval tuzing. Bu jadvalda har bir dars qisqa, lekin aniq maqsadlarga ega bo'lsin.

Masalan, bir kunda uch xil dars turi: birinchi turi grammatika, ikkinchisi- yangi so'zlar, uchinchi o'qish va tushunish mashqlari. Kichik qadamlar bilan katta natijalarga erishish mumkin!



2. O'rgangan bilimlarni amaliyotda qo'llashga harakat qiling

Tilni o'rganishda faqat o'qish yoki tinglash bilan chegaralanib qolish o'rganish jarayonini samarali qila olmaydi. Yangi o'rganilgan bilimlarni amaliy faoliyatlar bilan bog'lash kerak. Masalan, o'zingiz o'rganayotgan yangi so'zlarni kundalik hayotingizda qo'llashga harakat qiling. Bu, o'z navbatida, yodingizda qoldirishni osonlashtiradi va ingliz tilida muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Misol: Siz onlayn kurslarda o'rgangan so'z va iboralarni ishlatib, qisqa insholar yozib chiqing yoki do'stlaringiz bilan suhbatlashing.

Til o'rganish paytida muntazam ravishda yozish yoki gapirish qobiliyatingizni sinab ko'ring. Masalan, har kuni bir nechta gap tuzish yoki kun davomida o'rgangan narsalaringiz haqida ingliz tilida yozing. Bu o'zlashtirishni yanada mustahkamlaydi.



3. O'zingizni mukofotlang

Ingliz tilini o'rganishni boshlaganingizda, dastlab motivatsiya baland bo'lishi mumkin, ammo vaqt o'tishi bilan bu motivatsiya pasayishi tabiiy. Shu sababli, o'zingizga kichik va oson erishiladigan maqsadlar qo'yish orqali bu muammodan qutilish mumkin.

Masalan, o'zingiz uchun haftalik yoki oylik maqsadlar qo'ying: har hafta yangi so'zlarni o'rganish, har oy yangi grammatik qoidani amaliyotda qo'llash kabi kichik maqsadlar motivatsiyani saqlashga yordam beradi.

Har bir maqsadga erishganingizda o'zingizni mukofotlang. Bu sizni yanada ko'proq o'rganishga undaydi va o'rganishni jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Masalan: Agar bir haftada 50 ta yangi so'z o'rgansangiz, o'zingizni yaxshi ko'rgan film yoki sevimli mashg'ulotingizni qilish bilan mukofotlang. Bu kichik yutuqlar katta maqsadlarga erishishda muhim ahamiyatga ega.



4. Til o'rganishni hayotingizni bir qismiga aylantiring

Ingliz tilini o'rganishda eng samarali yondashuvlardan biri bu- til o'rganishni hayotingizning bir qismiga aylantirishdir. Bu jarayonni odatiy harakatlaringizga qo'shish orqali qilishingiz mumkin. Masalan, nonushta paytida ingliz tilidagi podkastlarni tinglash, ishdan uyga qaytayotganda audiokitob eshitish kabi faoliyatlarni qo'shish.

Bu 4 ta usul ingliz tilini onlayn o'rganish jarayonini osonlashtirishiga yordam beradi deb o'ylaymiz

**Hurmat bilan sizning do'stlaringiz
MyTeacher jamoasi**

